



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 236 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmirzo	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbosovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARIDA KASBGA YO'NALTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Nurmuratova Iroda Nuriddinovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularni innovatsion fikrlashga yo'naltirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar va amaliy mashg'ulotlarning bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, kasbga yo'naltirish, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetensiya, pedagogik innovatsiya, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, kreativlik, metodika.

Abstract: This article analyzes the improvement of career guidance methodology for future primary school teachers based on innovative approaches. It highlights effective methods for developing professional competence, innovative thinking, and practical readiness in teacher education. The study emphasizes the role of competency-based education, digital technologies, interactive teaching methods, and practice-oriented learning in enhancing professional training.

Key words: innovative approach, career guidance, primary education, future teacher, professional competence, pedagogical innovation, interactive methods, digital learning, creativity, methodology.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования методики профессиональной ориентации будущих учителей начальных классов на основе инновационных подходов. Освещаются современные педагогические технологии, направленные на развитие профессиональной компетентности, инновационного мышления и практической подготовки будущих педагогов. Обоснована роль компетентностного подхода, цифровых технологий и интерактивных методов обучения.

Ключевые слова: инновационный подход, профессиональная ориентация, начальное образование, будущий учитель, профессиональная компетентность, педагогические инновации, интерактивные методы, цифровое обучение.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli transformatsiya, globallashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi va mehnat bozori talablarining o'zgarishi pedagogik ta'lim mazmunini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalari oldida nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki kasbiy kompetensiyalari rivojlangan, innovatsion fikrlaydigan, ijodkor va raqobatbardosh pedagoglarni tayyorlash vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim bo'g'ini hisoblanib, aynan ushbu bosqichda o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, mustaqil fikrlash qobiliyati, ma'naviy-axloqiy fazilatlar va shaxs sifatida shakllanishi uchun poydevor yaratiladi. Shu bois boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati, pedagogik kompetensiyasi va innovatsion faoliyatga tayyorligi ta'lim sifatining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat fan asoslarini puxta egallagan mutaxassis, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan, ta'lim jarayonini samarali tashkil etuvchi hamda kasbiy faoliyatini uzluksiz takomillashtirib boradigan ijodkor pedagog bo'lishi zarur.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga qaratilgan. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi hamda oliy ta'limni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy



hujjatlarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish va ta'lim sifati monitoringini takomillashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalar pedagogik oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirish metodikasini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Kasbga yo'naltirish pedagogik ta'limning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishini shakllantirish, kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish, pedagogik faoliyatning mazmun-mohiyatini anglash hamda o'z kasbiy istiqbolini ongli ravishda belgilashga xizmat qiladi. An'anaviy kasbga yo'naltirish metodlari bugungi kun talablarini to'liq qondira olmayotgani sababli ushbu jarayonga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, interfaol ta'lim metodlari, loyihaviy faoliyat, muammoli ta'lim, STEAM yondashuvi, raqamli ta'lim platformalari, sun'iy intellekt vositalari va elektron portfoliolardan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Innovatsion yondashuv kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv faoliyat, kreativ fikrlash va amaliy tajribaning integratsiyasiga asoslanadi. Mazkur yondashuv talabalarning kasbiy qobiliyatlarini aniqlash, ularni pedagogik faoliyatga moslashtirish, pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va kasbiy rivojlanish strategiyasini shakllantirish imkonini beradi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik madaniyat, kasbiy mas'uliyat, kommunikativ kompetensiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyoj shakllanadi.

Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, pedagoglarni tayyorlash jarayonida innovatsion metodlardan tizimli foydalanish ularning kasbiy moslashuvini tezlashtiradi, ta'lim sifati oshiradi hamda pedagogik faoliyat samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish nafaqat pedagogik ta'lim sifati, balki boshlang'ich ta'lim tizimining samaradorligini oshirishning ham muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini nazariy jihatdan asoslash, uning mazmuni va tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda ularda kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish masalalari pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarning keng qo'llanilishi mazkur muammoni nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan.

Kasbga yo'naltirish nazariyasining shakllanishida amerikalik olim John Deweyning pragmatik pedagogika konsepsiyasi muhim o'rin tutadi. Olimning fikricha, ta'lim jarayoni real hayot bilan uzviy bog'liq bo'lishi, talaba bilimni tayyor holda emas, balki amaliy faoliyat jarayonida egallashi lozim. Dewey pedagogik faoliyatni tajriba orqali o'rganish bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishini ta'kidlaydi. Shu jihatdan uning g'oyalari innovatsion kasbga yo'naltirish metodikasining nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatni ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan tahlil qilgan L.S. Vigotskiy ta'limning rivojlantiruvchi xarakterini asoslab bergan. U tomonidan ishlab chiqilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, talabaning kasbiy rivojlanishi hamkorlikdagi faoliyat, muloqot va amaliy tajriba orqali samarali amalga oshadi. Bu yondashuv bugungi kunda pedagogik amaliyot, mentorlik va refleksiv ta'lim texnologiyalarining ilmiy asosini tashkil etadi.

Amerikalik olim Donald Schön pedagoglarning kasbiy rivojlanishida refleksiv amaliyotning o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, zamonaviy pedagog o'z faoliyatini muntazam tahlil qilishi, yuzaga kelayotgan pedagogik muammolarni ijodiy hal etishi va kasbiy faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishi zarur. Refleksiv yondashuv innovatsion kasbga yo'naltirish metodikasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasining rivojlanishida A.V. Xutorskoyni ilmiy qarashlari alohida o'rin egallaydi. Olim ta'lim natijasini faqat bilimlar yig'indisi bilan emas, balki shaxsning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyati bilan baholash lozimligini asoslaydi. Uning fikricha, pedagogik ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya, kommunikativ, kreativ, ijtimoiy va refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.



Innovatsion ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish masalalari bo'yicha Michael Fullanning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Olim innovatsiyalarni joriy etish faqat texnologiyalarni almashtirish emas, balki pedagoglarning kasbiy madaniyatini, ta'lim falsafasini va boshqaruv tizimini o'zgartirish jarayoni ekanligini ta'kidlaydi. Fullan ta'lim sifati o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorligi bilan bevosita bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "ICT Competency Framework for Teachers" konsepsiyasida zamonaviy pedagog raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qila olishi, innovatsion metodlardan foydalanishi hamda XXI asr kompetensiyalarini shakllantira olishi zarurligi qayd etilgan ^[8].

Mahalliy olimlar tomonidan ham pedagogik innovatsiyalar va kasbiy tayyorgarlik masalalari keng tadqiq etilgan. Jumladan, N. Saidahmedov pedagogik texnologiyalarni ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy vosita sifatida baholab, interfaol metodlarning o'quv jarayonidagi afzalliklarini ilmiy asoslagan.

R. Ishmuhamedov innovatsion ta'lim texnologiyalarini pedagogik faoliyatning ajralmas qismi sifatida tavsiflaydi. Uning ilmiy ishlarida muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, hamkorlikda o'qitish va interfaol metodlarning bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashdagi samaradorligi asoslab berilgan.

Pedagogika sohasidagi taniqli olim B.X. Xodjayev kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagog kadrlarni tayyorlash masalalarini tadqiq etib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, refleksiv faoliyat va innovatsion metodlarning o'rni muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari kasbiy faoliyatga tayyorlashda STEAM texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish (Project Based Learning), muammoli ta'lim (Problem Based Learning), "Flipped Classroom", elektron portfolio, raqamli ta'lim platformalari hamda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha muayyan ilmiy izlanishlar mavjud bo'lsa-da, ushbu jarayonni kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika, refleksiv ta'lim, amaliy faoliyat va zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni yagona metodik tizim sifatida integratsiyalash asosida o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirishning nazariy va metodik asoslarini aniqlash maqsadida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli hamda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va modellashtirish metodlari qo'llanildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning kasbga yo'naltirish, pedagogik innovatsiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv ta'lim hamda raqamli pedagogikaga oid ilmiy qarashlari o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

Tizimli yondashuv asosida kasbga yo'naltirish metodikasi o'zaro bog'liq maqsad, mazmun, metodlar, vositalar, pedagogik shart-sharoitlar va natijalardan iborat yaxlit tizim sifatida tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil orqali an'anaviy kasbga yo'naltirish usullari bilan innovatsion yondashuvning didaktik imkoniyatlari solishtirildi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta'lim platformalari va sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni baholandi. Olingan ilmiy-nazariy natijalar umumlashtirilib, innovatsion yondashuv asosida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash bugungi kunda pedagogik ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchidan nafaqat o'z fanini mukammal bilish, balki innovatsion texnologiyalarni qo'llash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ta'lim jarayonini kreativ tashkil etish va kasbiy muammolarni mustaqil hal etish kabi kompetensiyalar ham talab etiladi. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kasbga yo'naltirish metodikasi bo'lajak pedagoglarning kasbiy qiziqishlarini shakllantirish, ularning pedagogik faoliyatga ongli munosabatini rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini izchil takomillashtirishga xizmat qiluvchi uzluksiz pedagogik jarayondir. Mazkur jarayon faqat nazariy bilimlarni egallash bilan chegaralanib qolmasdan, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, pedagogik faoliyatni modellashtirish va bo'lajak o'qituv-



chilarning kasbiy refleksiya qilishni ham o'z ichiga oladi. Innovatsion yondashuv esa ushbu jarayonning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini yangilash orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Innovatsion yondashuvning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni ijodiy izlanishga yo'naltirish, kasbiy faoliyatda uchraydigan muammolarni zamonaviy usullar yordamida hal etishga tayyorlash hamda raqamli ta'lim muhitida samarali ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Bunday yondashuv talabani ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi, uning kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi va o'z ustida muntazam ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
- kompetensiyaviy yondashuv;
- innovatsion pedagogik faoliyat;
- amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish;
- refleksiv faoliyat;
- raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan o'quv jarayonida talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada ularda kasbiy mustaqillik, mas'uliyat, tashabbuskorlik va pedagogik kreativlik rivojlanadi.

Kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "Aqliy hujum", "Keys-stadi", "Loyiha metodi", "Klaster", "FSMU", "Insert", "Bumerang", "Munozara", "Akvarium" kabi metodlar bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. Ushbu metodlar orqali talabalar real pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladi, muammolarga yechim izlaydi va kasbiy qarorlar qabul qilish tajribasini hosil qiladi.

Innovatsion yondashuvning muhim tarkibiy qismlaridan biri raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishdir. Bugungi kunda Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Canva, Quizizz, Kahoot, Padlet, Mentimeter, Nearpod kabi platformalar pedagogik ta'limning ajralmas vositalariga aylanmoqda. Ushbu platformalar orqali talabalar mustaqil ta'lim olish, elektron resurslardan foydalanish, masofaviy hamkorlikni tashkil etish hamda o'z bilim va ko'nikmalarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi pedagogik ta'lim mazmuniga yangi imkoniyatlarni olib kirmoqda. Sun'iy intellekt vositalari yordamida individual o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, dars ishlanmalarini tayyorlash, testlarni avtomatik yaratish, ta'lim natijalarini tahlil qilish hamda shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirish mumkin. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirishda pedagogik amaliyotning o'rni ham beqiyosdir. Pedagogik amaliyot davomida talabalar nazariy bilimlarini haqiqiy ta'lim muhitida sinab ko'radilar, darslarni mustaqil tashkil etadilar, sinf jamoasi bilan ishlash tajribasiga ega bo'ladilar hamda kasbiy faoliyatning murakkab jihatlarini o'rganadilar. Amaliyot jarayonida mentor-o'qituvchilar tomonidan beriladigan tavsiyalar va refleksiv tahlillar bo'lajak pedagoglarning kasbiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron portfolio texnologiyasidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Elektron portfolio talabani ilmiy ishlari, dars ishlanmalari, metodik tavsiyalari, loyiha ishlari, amaliyot natijalari va shaxsiy yutuqlarini tizimli ravishda jamlash imkonini beradi. Mazkur texnologiya talabani kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatish, o'z-o'zini baholash va kelgusidagi faoliyatini rejalashtirish uchun qulay vosita hisoblanadi.

Innovatsion yondashuv asosida takomillashtirilgan kasbga yo'naltirish metodikasi quyidagi ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oladi: diagnostika, kasbiy motivatsiyani shakllantirish, innovatsion ta'lim metodlarini qo'llash, pedagogik amaliyotni tashkil etish, refleksiya va yakuniy baholash. Har bir bosqich o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy shakllanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan kasbga yo'naltirish metodikasi talabalarning kasbiy motivatsiyasini oshiradi, pedagogik kompetensiyalarini rivojlantiradi, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini takomillashtiradi. Shu bilan birga, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga hamda innovatsion pedagog sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Demak, innovatsion yondashuv asosida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish pedagogik oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri bo'lib, u bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy ta'lim talablari darajasida kasbiy faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni samarali shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish pedagogik ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogdan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki innovatsion fikrlash, raqamli kompetensiyalar, pedagogik kreativlik va amaliy faoliyatni samarali tashkil eta olish ko'nikmalari ham talab etiladi. Shu bois kasbga yo'naltirish metodikasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida innovatsion yondashuvning mazmuni va tarkibiy komponentlari tahlil qilinib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, raqamli ta'lim platformalari, loyiha asosida o'qitish hamda pedagogik amaliyotning o'zaro integratsiyasi yuqori samaradorlikni ta'minlashi asoslandi. Mazkur yondashuv talabalarni kasbiy faoliyatga ongli ravishda tayyorlash, ularning mustaqil fikrlashini, pedagogik muammolarni hal etish qobiliyatini va kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, taklif etilgan metodik model kasbga yo'naltirish jarayonini diagnostika, motivatsiya, innovatsion ta'lim, pedagogik amaliyot, refleksiya va monitoring bosqichlari asosida tizimli tashkil etish imkonini beradi. Ushbu modelning amaliyotga joriy etilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hamda zamonaviy pedagogik faoliyatga moslashuv darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- pedagogik oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirish mazmunini innovatsion yondashuvlar asosida yangilash;
- o'quv jarayonida interfaol metodlar va raqamli ta'lim texnologiyalaridan muntazam foydalanishni kengaytirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar va mikrodarslar ulushini oshirish;
- pedagogik amaliyotni zamonaviy maktablar faoliyati bilan uzviy integratsiyalash;
- talabalarning kasbiy rivojlanishini elektron portfolio va refleksiv baholash mexanizmlari orqali muntazam monitoring qilib borish.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda zamonaviy ta'lim tizimi uchun raqobatbardosh, kreativ va yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqotda ilgari surilgan nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalar pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid farmon va qarorlari.
3. Dewey J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
5. Schön D.A. The Reflective Practitioner. New York: Basic Books, 1983.
6. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. - Москва, 2003.
7. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. 5th ed. New York: Teachers College Press, 2016.
8. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO, 2018.
9. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya, 2003.
10. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent, 2014.
11. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Sano-standart, 2017.
12. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century. The Clearing House. 2010. Vol. 83(2). P. 39-43.
13. Bergmann J., Sams A. Flip Your Classroom. ISTE, 2012.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.